

RITM VA METR.

RITM VA METR.


- REJA
- **Cho'zimplarning asosiy va erkin ravishda bo'linishi**
- **Musiqaviy zarb.**
- **Metr, o'lchov, takt.**
- **Takt chizig'i.**
- **Takt oldi**

Cho'zimlarning asosiy va erkin ravishda bo'linishi

O'zaro bog'lanib izchil kelgan tovushlar cho'zimi **ritm** deyiladi.

Musiqada tovushlar cho'zimining ketma-ket kelishi natijasida ular ma'lum vaqt ichida almashinib turadi.

Musiqiy tovushlarning muayyan tartibda bog'langan cho'zimlari birlashib, ritmik turkumlar (usullar)ni hosil qiladi.




Musiqqa asarining umumiy ritmi ana shu ritmik turkumning yig'indisidan tarkib topadi.


Musiqa amaliyotida quyidagi cho'zimlar keng qo'llaniladi:

- Asosiy, juft bo'linadigan cho'zimlar, ular – butun, yarimtalik, chorak, sakkiztalik (nimchorak), o'n oltitalik va hokazo.
- Ushbu asosiy cho'zimlarni istalgan teng qismlarga erkin, shartli bo'lish natijasida erkin bo'linishlar hosil bo'ladi.
- Ushbu bo'linishlar nomlari oddiy intervallar nomlaridan olingan.
- Ular qatoriga eng ko'p uchraydigan quyidagi erkin bo'linishlar kiradi:


a) **Triol** - asosiy cho'zimning ikki qism o'rniga, uch qismga bo'linishidan hosil bo'ladi:




b) **Kvintol** – asosiy choʻzimning 4 qism oʻrniga, besh qismga boʻlinishidan hosil boʻladi:




v) **Sekstol** – asosiy cho'zimning to'rt qism o'rniga olti qismga bo'linishidan hosil bo'ladi:




g) **Septol** - asosiy
cho'zimning to'rt
qism o'rniga yetti
qismga
bo'linishidan hosil
bo'ladi:




- d) **Duol** – yoniga nuqta qo'yilgan asosiy cho'zimning ikki qismga bo'linishidan hosil bo'ladi:



- U odatdagicha bo'linganida quyidagiga teng:






e) **Kvartol** – yoniga nuqta qo'yilgan asosiy cho'zimning to'rt qismga bo'linishidan hosil bo'ladi:

- Cho'zimlar turkumiga **pauza** ham kirishi mumkin va turkumdagi cho'zimlarga teng bo'ladi:





Musiqa amaliyotida asosiy cho'zimlarning bulardan ham kichikroq qismlarga erkin bo'linishi juda kam uchraydi.

Masalan: 9, 11 va undan ham ko'p hissali tovushlardan tuzilgan turkumlar ham bo'lishi mumkin.

Musiqaviy zarb. Metr, o'lchov, takt.

Takt chizig'i.

Takt oldi

Musiqa amaliyotida tovushlar ma'lum bir vaqt davomida yangraydi. Tovushlarning ma'lum bir vaqtlarda teng hissalariga bo'linib, almashib turishi musiqada bir tekis, ravon harakatni hosil qiladi.


Tovushlarning ana shu vaqtli harakati paytida ayrim hissalar **urg'usi** ajralib turadi. Bu urg'ularga **zarb** (aktsent) deyiladi.

Ushbu vaqtli harakat jarayonida urg'u tushadigan hissalar **kuchli hissalar**, urg'u tushmaydigan hissalar esa **kuchsiz hissalar** deyiladi.

Kuchli va kuchsiz hissalarining tekis almashinib turishi **metr** deyiladi. Metr hissasi xilma-xil cho'zimlarda ifodalanadi.

Metr hissasining ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi **o'lchov** deyiladi.

- O'lchovlar nota chizig'ida vertikal tarzda joylashgan ikkita raqam bilan yoziladi. Bu raqamlar birin-ketin yuqoridan pastga qo'yilgan bo'lib, kalit yonida al'teratsiya belgilaridan so'ng joylashtiriladi. Masalan:



Bunda ustki raqam metrdagi hissalar sonini, quyidagi raqam esa, mazkur o'lchovdagi metr hissasining qanday cho'zimda ifodalanganligini bildiradi.

Musiqqa asarining bir kuchli hissadan ikkinchi bir kuchli hissagacha bo'lgan oralig'i **takt** deyiladi.

Nota yozuvida
har bir takt nota
yo'lini ko'ndalang
kesib o'tgan
vertikal chiziq
bilan ajratiladi,

Takt chizig'i
odatda takt
oldidan kuchli
hissani ajratib
ko'rsatish uchun
qo'yiladi.

bu vertikal chiziq
takt chizig'i
deyiladi.

Agar musiqa asari kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshidan to'liq bo'lmagan takt hosil bo'ladi, bunga **takt oldi** deyiladi.

Takt oldi ko'p hollarda umumiy takt cho'ziminin yarimidan oshmaydi.

Takt oldi musiqa asarining o'rtasida, uning istalgan bir qismi boshlanishi oldida ham uchrashi mumkin.

- Asar oxirida yoki uning biron qismidan so'ng ikkita takt chizig'i qo'yiladi.
- Ko'pgina hollarda takt oldi bilan boshlangan asar yoki uning biror qismi to'liq bo'lmagan takt bilan tugallanadi va u takt oldini to'ldiradi.